



Ustoz merosidan innovatsion ta'limgacha

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

EYIB.UZ jurnali hamkorligida

San'atshunoslik va chizmachilik fanini
o'qitish metodikasida muammo hamda yechimlar

BO'LAJAK TEATR EGALARINI TAYYORLASHDA PEDOGOGIK MAHORAT VA XULOSALAR.

Yorqinoy Hotamova
QDU, "San'atshunoslik"
kafedrasi professori

Anotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak aktyorlarni tarbiyalashda pedagogik mahorat va tajriba uyg'unligiga yo'naltirilgan bo'lib, san'at ta'limida ish boshlagan yosh pedagoglar uchun kichik bir tavsiya vazifasini bajara oladi.

Kalit so'zlar: *san'at, teatr, mahorat, tajriba, uslub, yo'nalish, muammo.*

Yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda pand-nasihati bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Ezgulikni, yurtparvarlikni, insoniy fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiladigan amaliy ishlar qilish kerak. Ana shunday amaliy tarbiya omillaridan biri san'atdur.

San'at kishilarini tarbiyalashda juda katta kuch darkor. Endigina pedagogika yo'lga kirib kelgan nazariy jihatdan pishiq va yangi bilimlarga ega bo'lgan pedagog qanchalik bilimli va shijoatli bo'lmasin unga tajriba va malaka kerak. To'g'ri bazi bir o'ziga va bilimiga ishongan yosh pedagoglar buni rad etishlari mumkin ammo tajriba va malakasiz san'at kishisini tarbiyalash anchayin mushkul ish ekanligini bir yillik ko'nikmalardan kelib chiqqan holda ayta olaman.

Men nazariy jihatdan birinchi kurs talabalarini uchun kerak bo'ladigan bilimlarga egaman. Hop bu birinchi masala va men ustozim qanday o'rgatgan bo'lsa shunday dars o'ta boshlayman. Lekin o'tilgan darslar meniki bo'lmay qoladiku. Men fikrlashimcha avvalo yosh pedagog ilk qadamini yordamchi o'qituvchilikdan boshlamog'i va bir necha yil tajriba orttirib so'ngra o'zi mustaqil yakka tartibda ish boshlashi maqsadga muvofiq ish bo'ladi degan hulosaga keldim.. Bilishimcha pedagog nimanidir o'rgata olishi uchun avvalo uning o'zi shu sohani juda mukammal bilishi kerak. Chunki o'zida yo'q narsani qanday talabalarga berish mumkin. Pedagoglik faoliyatni boshlash uchun kerakli quyidagi vazifalarni o'z oldimga belgilab oldim va yosh pedagoglarga ham tavsiya sifatida bayon qildim.

- **Avvalo tajriba. (amaliy va nazariy bilimlar uyg'unligida)** Tajriba pedagogni sayqallaydi va qaysi bir yo'lni tanlasam to'g'ri bo'lar ekan? Degan savolga javob topaman deb talabalarni tajriba quyoniga aylantirmaydi. Amaliy jihatdan kuchli pedagog bo'lajak aktyorlarga amalda ko'rsatgan holda darslarni tushuntira boshlaydi va talaba juda tez anglab oladi. Biroq bu holatda talabada taqlid tushunchasi paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida hatolarni va kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunga sabab talaba ustozini qanday ko'rsatib tushuntirib bergan bo'lsa shunday qabul qiladi va o'zidagi qobiliyatni ortga tashlab ustozidan ko'rganini qabul qiladi. Shu o'rinda savol tug'uladi. Nima ustozlar amalda ko'rsatib ijro qilib bermasligi kerakmi? Yo'q buni rad etib bo'lmaydi lekin, talabaga avvalo nazariy jihatini tushuntirib berish va talaba qanday tushuncha olgan bo'lsa shunday ijro

qilishiga sharoit yaratib berish kerak ana undan so'ng amaliy jihati tushuntirilsa talabadagi ijodiy o'sish ko'zga yaqqol tashlanadi.

- **Sodda va mukammal tushuntirish.** Talabalarga biror bir mavzuni tushuntirayotganda iloji boricha sodda ammo mavzuning aniq tasavvurini bera olish. Misol uchun. Oddiy san'at so'zini olaylik, 1- san'at bu qaysidur tildan olingan bo'lib u qaysidur ma'noni anglatadi va h k. 2- San'at – bu o'zim tasavvur qilgan narsalar haqida qayg'uraman va kulaman. Va insonlarni ham shunga undayman. Sa'nat bu ishonch, san'at bu mukammallik va h k. har ikkala tushuntirish ham bir ma'noga boradi faqat boshqa boshqa tomondan. Talabaga qaysi tomondan tushunarli bo'lsa aynan o'sha yo'l to'g'ri. Soddalik va mukammallik.

- **Ko'ra bilish.** Talabaning qobiliyat darajasi va undagi qobiliyatni ko'proq qaysi janrga yoki uslubga tortayotganini ko'ra bilish va unga to'g'ri yo'nalishni aniq tanlay bilish. Va unga yetsihmayotgan uslublar ustida ko'proq va muntazam ishlar olib boorish. (individual tarzda)

- **Tezkor tahlil.** Talaba o'z nomi bilan talabchan shuning uchunham u bergan birinchi savoldan nimani hohlayotganini bila olish va pedagog jihatdan berilgan javob keyingi savolga hojat qoldirmasligi taminlash. Talabaga tushuntirilayotganda iloji boricha oldi qochdi gaplardan saqlanish, Hamish talabani savollariga shay va hozirjavob bo'lish kerak. Agarda berilgan savolga pedagog javob bera olmas ekan u holda savolni unutish emas balki, talabaga bu savol haqida haqiqatdan ham tushunchaga ega emasligini takidlash va kelgusi darsda aniqlab kelishligini aytish lozim. Chunki javosiz qolgan savoli uchun talabada qayta savol bermaslik holatlari ham kuzatilishi mumkin.

Pedagog sifatida o'zimiz uchun vazifalarni aniqlab oldik ham deylik ammo musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalar ekanmiz, avvalo bu sohaning yutuq va kamchiliklarini qay darajada bilish va bilmasligimizni ham biroz muhokama qilib olishimiz, bu sohadagi yutuqlar va kamchiliklarni mumkin qadar aniqlash va bo'lajak musiqali teatr aktyorlarini bu xato va kamchiliklarga duch kelmaydigan qilib tayyorlash kerak deb o'ylayman. Agarchi duch kelsa ham vaziyatni oqilona baholash va unga ijobiy munosabat ko'rsata olishni ham o'rgatish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar to'plami.

1. Alieva N. San'at – mening hayotim – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
2. San'at ta'limi. Yilnoma. 2- jild – T., 2006.
3. www.ziyonet.uz
4. www.ziyo.com